


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLODI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLODI ASOSIDAGI YONDASHUV

Narziyev Xayotjon Azamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada tijorat banklarida ichki auditning iqtisodiy mohiyati xalqaro standartlarning yangi avlodi — «Ichki auditning global standartlari» (IIA, 2024) hamda Bazel qo'mitasining BCBS-223 hujjati talablari asosida qayta ko'rib chiqilgan. Xorijiy va milliy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarning qiyosiy kontent-tahlili asosida ichki audit funksiyasining to'rt bosqichli konseptual evolyutsiya modeli ishlab chiqilgan hamda bank ichki auditiga oid mualliflik ta'rifi taklif etilgan. Tahlil natijalari milliy normativ bazani, xususan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizomni [1] yangi xalqaro standartlar talablariga muvofiq takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish imkonini bergan. Tadqiqot xulosalari bank sektorida ichki audit va korporativ boshqaruv tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, tijorat banklari, iqtisodiy mohiyat, xalqaro standartlar, kafolat xizmatlari, maslahatchilik xizmatlari, riskka yo'naltirilgan audit, korporativ boshqaruv.

Abstract. This article re-examines the economic essence of internal audit in commercial banks based on the requirements of the new generation of international standards, namely the Global Internal Audit Standards (IIA, 2024) and the Basel Committee's BCBS 223 document. Based on a comparative content analysis of definitions presented in foreign and national literature, a four-stage conceptual model of the functional evolution of internal audit is developed, and an author's definition of bank internal audit is proposed. The results of the analysis made it possible to formulate practical proposals for improving the national regulatory framework, particularly the Regulation on Requirements for Internal Audit in Commercial Banks, registered with the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan under No. 3302 [1], in accordance with the requirements of the new international standards. The conclusions of the study contribute to the improvement of internal audit and corporate governance systems in the banking sector.

Keywords: internal audit, commercial banks, economic essence, international standards, assurance services, advisory services, risk-based audit, corporate governance.

Аннотация. В статье пересмотрена экономическая сущность внутреннего аудита в коммерческих банках на основе требований нового поколения международных стандартов — «Глобальных стандартов внутреннего аудита» (IIA, 2024) и документа Базельского комитета BCBS 223. На основе сравнительного контент-анализа определений, представленных в зарубежной и отечественной литературе, разработана четырёхэтапная концептуальная модель функциональной эволюции внутреннего аудита и предложено авторское определение внутреннего аудита банка. Результаты анализа позволили разработать практические предложения по совершенствованию национальной нормативной базы, в частности Положения «О требованиях к внутреннему аудиту коммерческих банков», зарегистрированного Министерством юстиции Республики Узбекистан под № 3302 [1], в соответствии с требованиями новых международных стандартов. Выводы исследования способствуют совершенствованию систем внутреннего аудита и корпоративного управления в банковском секторе.

Ключевые слова: внутренний аудит, коммерческие банки, экономическая сущность, международные стандарты, услуги по предоставлению гарантий, консультационные услуги, риск-ориентированный аудит, корпоративное управление.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida bank tizimini transformatsiya qilish, tijorat banklarida korporativ boshqaruv sifatini oshirish va risklarni boshqarish tizimlarini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. «2022–2026-yillarga mo'ljallangan



Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmon [2] hamda «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-son Farmon [3] banklarda zamonaviy boshqaruv amaliyotlarini, shu jumladan, mustaqil va samarali ichki audit funksiyasini joriy etishni bevosita nazarda tutadi.

Bank tizimining ko'lami ham ushbu masalaning dolzarbligini oshiradi: 2025-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, mamlakatimizda 35 ta tijorat banki faoliyat yuritmoqda, bank tizimining jami aktivlari 866,8 trln so'mga yetgan. Shunday sharoitda tijorat banklari faoliyatining ishonchligini ta'minlashda ichki audit institutining roli tubdan o'zgarmoqda: u an'anaviy «nazorat-tekshirish» vazifasidan bank qiymatini himoya qiluvchi va oshiruvchi strategik funksiyaga aylanmoqda.

Masalaning nazariy jihatdan dolzarbligi xalqaro me'yoriy maydondagi tub yangilanish bilan bog'liq. Ichki auditorlar instituti (IIA) tomonidan 2024-yil 9-yanvarda qabul qilingan va 2025-yil 9-yanvardan kuchga kirgan «Ichki auditning global standartlari» (Global Internal Audit Standards) ichki auditning maqsadi, vazifalari va funksional kengligini yangicha belgilab berdi (IIA, 2024). Shu bilan birga, bank sektori uchun Bazel bank nazorati qo'mitasining «Banklarda ichki audit funksiyasi» (BCBS-223) hujjati maxsus talablarni o'rnatadi (BCBS, 2012). Biroq milliy iqtisodiy adabiyot va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda ichki auditning iqtisodiy mohiyati, asosan, avvalgi avlod standartlari asosida talqin qilinmoqda. Bu holat xalqaro standartlarning yangi konseptual yondashuvlarini milliy nazariya va amaliyotda yanada kengroq aks ettirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — tijorat banklarida ichki auditning iqtisodiy mohiyatini xalqaro standartlarning yangi avlodi talablari asosida aniqlashtirish hamda ichki audit funksiyasining konseptual evolyutsiya modelini ilmiy asoslashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi: ichki audit ta'riflarining xorijiy va milliy adabiyotlardagi rivojlanishini tanqidiy tahlil qilish; ta'riflarning qiyosiy kontent-tahlilini amalga oshirish; ichki audit funksiyasining to'rt bosqichli evolyutsiya modelini asoslash; bank ichki auditining mualliflik ta'rifini ishlab chiqish va milliy normativ bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar berish. Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ichki audit faoliyati tanlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki auditning iqtisodiy mohiyati masalasi xorijiy ilmiy adabiyotda keng va ko'p qirrali tarzda yoritilgan. Fundamental yondashuv doirasida ichki audit tashkilot faoliyatiga qiymat qo'shuvchi va uni takomillashtiruvchi mustaqil, xolis, kafolatli va maslahatchilik faoliyati sifatida talqin etiladi (Anderson va boshq., 2017). Ushbu ta'rif uzoq yillar davomida sohaning konseptual o'zagini tashkil etib keldi, biroq raqamli transformatsiya va risklar muhitining murakkablashuvi uning chegaralarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.

Funksional yondashuv tarafdorlari ichki auditning tashkilotdagi rolini uning manfaatdor tomonlar bilan o'zaro munosabatlari orqali ochib beradilar. Jumladan, ichki audit qo'mitasi uchun «ishonchni ta'minlovchi» (comfort provider) sifatida qaraladi. Uning mustaqilligi va axborot uzatish sifati korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida baholanadi (Sarens va boshq., 2009). Ichki audit samaradorligining tashkiliy omillari — yuqori boshqaruv ko'magi, resurslar bilan ta'minlanganlik va auditorlar malakasi — empirik jihatdan aniqlangan (Arena va Azzone, 2009; Cohen va Sayag, 2010). Rivojlanayotgan mamlakatlar kontekstida ichki audit samaradorligi boshqaruv tomonidan tavsiyalarning bajarilishiga bevosita bog'liqligi ko'rsatilgan (Mihret va Yismaw, 2007).

So'nggi yillar adabiyotida ichki audit funksiyasining transformatsiyasi alohida tadqiqot yo'nalishiga aylandi. Ichki auditning kelajagi «korporativ boshqaruv bog'boni» metaforasi orqali ifodalanib, uning kafolatli va maslahatchilik xizmatlarini muvozanatlashtirish zarurati asoslangan (Lenz va Jeppesen, 2022). Raqamlashgan biznes muhitida ichki audit funksiyasining o'рни va malaka talablari tubdan yangilanayotgani empirik tadqiqotlarda qayd etilgan (Betti va Sarens, 2021). O'zgarishlar davrida ichki auditorlar tashkilotdagi «o'zgarishlar agenti» rolini bajarishi lozimligi ta'kidlanadi (Chambers, 2021). Shuningdek, Enron inqirozidan keyingi davr adabiyotining tizimli tahlili ichki audit tadqiqotlarida korporativ boshqaruv va risk-menejment bilan integratsiya masalalari markaziy o'rin egallaganini ko'rsatadi (Kotb va boshq., 2020). Ichki audit samaradorligini amaliy o'lchov mezonlariga aylantirish va unga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish bo'yicha ham salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan (Turetken va boshq., 2020). IIAning 2024-yilgi yangi standartlari va ularga ilova qilinayotgan mavzuli talablar (Topical Requirements) ushbu ilmiy munozaralarning me'yoriy ifodasi sifatida yuzaga keldi (IIA, 2024; IIA, 2025).

MDH davlatlari iqtisodiy maktabida ichki audit an'anaviy ravishda ichki xo'jalik nazorati tizimining tarkibiy qismi sifatida qaraladi: ichki audit tashkilot rahbariyatining manfaatlarini ko'zlab yuritiladigan, buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimining ishonchligini tekshiruvchi faoliyat sifatida ta'riflanadi (Podolskiy va boshq., 2012). O'zbekistonlik olimlar ishlarida ham ichki audit va ichki nazorat masalalari chuqur o'rganilgan: ichki auditning nazorat funksiyasi, uning auditorlik faoliyati tizimidagi o'рни va tashkiliy-uslubiy jihatlari yoritilgan (Do'smurov,



2003; Ahmadjonov va Yakubov, 2010).

Shu bilan birga, amalga oshirilgan tadqiqotlarning ilmiy ahamiyatini e'tirof etgan holda, mavzuning ayrim jihatlarini qo'shimcha o'rganish zarurligini qayd etish mumkin. Birinchidan, milliy adabiyotdagi ta'riflar asosan 1999–2017-yillardagi standartlarga tayanadi va 2024-yilgi Global standartlarda belgilangan ayrim konseptual yangiliklarni to'liq aks ettirmaydi. Ikkinchidan, tijorat banklarida ichki auditning tarmoq xususiyatlari, jumladan, prudensial nazorat, BCBS-223 talablari va bank risklarining o'ziga xos xususiyatlari qo'shimcha tadqiq etishni talab qiladi. Uchinchidan, ichki audit funksiyasining tarixiy rivojlanishini yaxlit konseptual model shaklida yanada tizimlashtirish imkoniyati mavjud. Mazkur maqola ushbu ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot sifat (kvalitativ) strategiyasiga asoslangan bo'lib, uning dizayni nazariy-konseptual tahlil va hujjatlarni o'rganish usullarining uyg'unligiga qurilgan. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy abstraksiya va dialektik yondashuv — ichki auditning iqtisodiy mohiyatini uning rivojlanish qonuniyatlari bilan birlikda ochib berishda; tarixiy-mantiqiy metod — ichki audit funksiyasining evolyutsion bosqichlarini davrlashtirishda; qiyosiy kontent-tahlil — xalqaro standartlar (IIA, 2024; BCBS, 2012), milliy normativ hujjatlar va ilmiy adabiyotlardagi ta'riflarni tarkibiy elementlarga ajratib solishtirishda; tizimli yondashuv — ichki auditni bank korporativ boshqaruvi tizimining elementi sifatida qarashda; induksiya va deduksiya — xususiy ta'riflardan umumlashgan mualliflik ta'rifiga o'tishda.

Tadqiqotning axborot bazasini «Ichki auditning global standartlari» (2024), Bazel qo'mitasining BCBS-223 hujjati, O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni [4], «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni [5], O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom [1], Markaziy bankning rasmiy statistik ma'lumotlari hamda mavzuga oid xorijiy va milliy ilmiy nashrlar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'riflar evolyutsiyasining qiyosiy tahlili. Ichki auditning iqtisodiy mohiyatini aniqlashtirishning boshlang'ich nuqtasi — mavjud ta'riflarning tarkibiy elementlarini solishtirishdir. Tahlil davomida to'rtta me'yoriy manba va ularga mos ta'riflar bir xil mezonlar (maqsad, funksiyalar, obyekt, tashkiliy maqom) bo'yicha kontent-tahildan o'tkazildi (1-jadval).

1-jadval

Ichki audit ta'riflarining qiyosiy kontent-tahlili¹


Manba	Ta'rifning asosiy mazmuni	Ta'rifdagi markaziy urg'u
IIA, IPPF (1999/2017)	Tashkilot faoliyatiga qiymat qo'shish va uni takomillashtirishga qaratilgan mustaqil, xolis kafolatli va maslahatchilik faoliyati; risk-menejment, nazorat va boshqaruv jarayonlarini tizimli baholaydi	Qiymat qo'shish; kafolat + maslahat birligi; uchta baholash obyekti
IIA, Global standartlar (2024)	Ichki auditning maqsadi — tashkilotning qiymat yaratish, himoya qilish va saqlash qobiliyatini boshqaruv organi va menejmentga mustaqil, riskka asoslangan va xolis kafolat, maslahat hamda istiqbol (insight) berish orqali mustahkamlash	Qiymatni yaratish–himoyalash–saqlash triadasi; riskka asoslanganlik; «istiqbol berish» yangi funksiyasi
BCBS-223 (2012)	Ichki audit bank ichki nazorati, risk-menejmenti va boshqaruvi tizimlarining sifati va samaradorligi to'g'risida kengash va yuqori menejmentga mustaqil kafolat beradi hamda shu orqali bankning uzoq muddatli barqarorligini himoya qiladi	Prudensial yo'nalish; kengash oldidagi hisobdorlik; bank barqarorligini himoyalash
3302-son Nizom (2021)	Ichki audit — bank faoliyatining qonunchilik va ichki hujjatlarga muvofiqligini, hisobot ishonchligini va ichki nazorat tizimining adekvatligini tekshirish va baholash bo'yicha faoliyat	Muvofiqlik nazorati; tekshirish funksiyasi ustuvorligi

1 Manba: muallif tomonidan [5; 6; 8; 12] asosida tuzilgan.



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, milliy normativ ta'rif mazmuran 1999-yilgi avlod konsepsiyasiga yaqin bo'lib, 2024-yilgi standartlarda mustahkamlangan uchta prinsipial yangilikni qamrab olmaydi: birinchidan, ichki audit maqsadining «qiymat yaratish, himoya qilish va saqlash» triadasi orqali ifodalanishi; ikkinchidan, kafolat va maslahat bilan bir qatorda «istiqbol berish» (insight) funksiyasining mustaqil maqom olishi; uchinchidan, riskka asoslanganlikning ta'rifning o'zagiga ko'chishi (IIA, 2024). BCBS-223 esa bankning o'ziga xosligini — prudensial nazorat konturi va kengash oldidagi bevosita hisobdorlikni — qo'shimcha mezon sifatida kiritadi (BCBS, 2012).

Ichki audit funksiyasining to'rt bosqichli evolyutsiya modeli. Ta'riflar tahlili ichki audit funksiyasining mazmuran bosqichma-bosqich kengayib borganini ko'rsatadi. Tarixiy-mantiqiy metodni qo'llash asosida ushbu jarayonni to'rt bosqichli konseptual model ko'rinishida tizimlashtirish taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. Ichki audit funksiyasining to'rt bosqichli evolyutsiyasi²

Birinchi bosqich (1940-yillardan) — moliyaviy nazorat bosqichi: ichki audit buxgalteriya yozuvlarining to'g'riligini va aktivlar butligini tekshiruvchi taftish funksiyasi sifatida shakllandi. Ikkinchi bosqich (1970-yillardan) — operatsion audit bosqichi: tekshiruv predmeti moliyaviy hisobotdan tashkilot operatsiyalari samaradorligiga kengaydi. Uchinchi bosqich (1990-yillardan) — riskka yo'naltirilgan audit (RBIA) bosqichi: audit resurslari risklarni baholash natijalari asosida taqsimlana boshladi, ichki audit risk-menejment tizimining baholovchisiga aylandi. To'rtinchi bosqich (2010-yillardan hozirgacha) — maslahatchilik-kafolatli bosqich: ichki audit boshqaruv organining «ishonchli maslahatchisi» maqomini olib, kafolat, maslahat va istiqbol berishni uyg'unlashtirmoqda (Chambers, 2021; Lenz va Jeppesen, 2022). Har bir bosqichning tasniflovchi belgilari 2-jadvalda umumlashtirilgan.

2-jadval

Evolutsiya bosqichlarining tasniflovchi belgilari³

Mezon	1-bosqich (1940-y.)	2-bosqich (1970-y.)	3-bosqich (1990-y.)	4-bosqich (2010-yillardan hozirgacha)
Ustuvor funksiya	Tekshirish (reviziya)	Samaradorlikni baholash	Risklarni baholash	Kafolat + maslahat + istiqbol
Asosiy obyekt	Buxgalteriya yozuvlari, aktivlar	Biznes-jarayonlar	Risklar portfeli	Qiymat yaratish zanjiri
Uslubiy asos	Hujjatli tekshiruv	Operatsion tahlil	Risklar xaritasi, RBIA	Ma'lumotlar tahlili, uzluksiz audit

² Manba: muallif ishlanmasi

³ Manba: muallif tomonidan [5; 6; 8; 12] asosida tuzilgan.


Tashkilotdagi roli	Nazoratchi	Baholovchi	Risklar bo'yicha ekspert	Ishonchli maslahatchi, uchinchi himoya chizig'i
Me'yoriy ifodasi	Ichki yo'riqnomalar	IIA SIAS standartlari	IPPF (1999/2017), BCBS-223	Global standartlar (2024)

Model shuni ko'rsatadiki, har bir yangi bosqich avvalgisini inkor etmaydi, balki uni o'z ichiga singdirib, funksional kenglikni orttiradi: zamonaviy bank ichki auditi taftish tekshiruvini ham, operatsion baholashni ham, risk-tahlilni ham bajaradi, biroq ularni qiymatni himoya qilish va yaratish maqsadiga bo'ysundiradi. Evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchlari sifatida uchta omil guruhi ajratildi: tartibga solish omillari, texnologik omillar hamda risklar muhitining murakkablashuvi, jumladan, kiberxavfsizlik, uchinchi tomonlar bilan bog'liq risklar va ESG omillari.

Bank ichki auditining mualliflik ta'rifi. Qiyosiy tahlil natijalari va evolyutsiya modeli asosida tijorat banklari uchun ichki auditning iqtisodiy mohiyatini quyidagicha ta'riflash taklif etiladi: ichki audit — tijorat bankining qiymat yaratish, himoya qilish va saqlash qobiliyatini mustahkamlashga qaratilgan, kuzatuv kengashiga (audit qo'mitasiga) funksional bo'ysunuvchi, riskka asoslangan holda bank korporativ boshqaruvi, risk-menejmenti va ichki nazorat tizimlarining samaradorligi yuzasidan mustaqil va xolis kafolat, maslahat hamda istiqbol beruvchi, uchinchi himoya chizig'i maqomidagi doimiy faoliyat turidir.

Taklif etilayotgan ta'rifning ilmiy yangiligi quyidagi elementlarning yaxlit uyg'unlashtirilishida namoyon bo'ladi: (1) maqsad qo'yilishida «nazorat qilish» emas, «qiymat triadasi» (yaratish–himoyalash–saqlash) asos qilib olingan — bu 2024-yilgi global standartlar ruhiga mos; (2) BCBS-223 talabidan kelib chiqib, kuzatuv kengashiga funksional bo'ysunish ta'rifning ajralmas belgisi sifatida mustahkamlangan — bu bankning o'ziga xosligini ifodalaydi; (3) kafolat va maslahat qatorida «istiqbol berish» funksiyasi ilk bor milliy ilmiy muomalaga kiritilmoqda; (4) «uchinchi himoya chizig'i» maqomi ta'rifning o'ziga singdirilib, ichki auditning risk-menejment va komplayens funksiyalaridan institutsional chegaralanishi ta'minlangan; (5) riskka asoslanganlik auditning barcha bosqichlariga taalluqli umumiy tamoyil sifatida belgilangan.

Funksional kenglik va milliy normativ bazaga moslik tahlili. Yangi ta'rif ichki audit xizmatining funksional qamrovini ham qayta belgilashni taqozo etadi. Global standartlar va BCBS-223 talablarini umimlashtirish asosida zamonaviy bank ichki auditining oltita asosiy funksiyasi ajratildi (2-rasm).



2-rasm. Zamonaviy bank ichki auditi xizmatining asosiy funksiyalari⁴

Ushbu funksional model milliy normativ bazaga qiyoslanganda sezilarli tafovutlar aniqlandi (3-jadval). Tahlil uchun 3302-son Nizom matni taklif etilayotgan ta'rifning beshta tarkibiy elementi kesimida ko'rib chiqildi.

4 IIA, 2024 va BCBS, 2012 asosida muallif tomonidan tuzilgan



3-jadval

Ta'rif elementlarining 3302-son Nizomda aks etganlik darajasi⁵

Ta'rif elementi (IIA-2024 / BCBS-223)	3302-son Nizomdagi holati	Xulosa
Qiymat triadasi (yaratish–himoyalash–saqlash)	Aks etmagan; maqsad «tekshirish va baholash» orqali ifodalangan	Mavjud emas
Kafolat + maslahat + istiqbol funksiyalari	Kafolat qisman; maslahat epizodik; istiqbol funksiyasi yo'q	Qisman mavjud
Riskka asoslanganlik	Riskka asoslanganlik — Yillik audit rejasining tavakkalchiliklarga asoslangan bo'lishi majburiy belgilangan; rejani ishlab chiqishda risklarni har tomonlama baholash natijalari va bankning risk-profilini hisobga olinadi	Qisman mavjud
Kuzatuv kengashiga funksional bo'ysunish	Mustahkamlangan (audit qo'mitasi orqali)	Mavjud
Uchinchi himoya chizig'i maqomi	«Uch himoya chizig'i» modeli tilga olinmagan	Mavjud emas

Ko'rinib turibdiki, milliy tartibga solish ichki audit xizmatining bo'ysunishi va mustaqilligini ta'minlash jihatidan xalqaro talablarga sezilarli darajada yaqinlashgan. Shu bilan birga, ichki auditning maqsadini belgilash va funksional qamrovini kengaytirish nuqtayi nazaridan 2024-yilgi Global standartlarda nazarda tutilgan ayrim konseptual yondashuvlarni milliy normativ bazada yanada aniqroq aks ettirish imkoniyati mavjud. Amaliyotda ayrim banklarda ichki audit faoliyati, asosan, muvofiqlikni tekshirishga yo'naltirilishi, maslahatchilik va istiqbol berish funksiyalari esa yetarli darajada rivojlantirilmagligi mumkin. Ushbu fikr rivojlanayotgan bozorlarda ichki audit samaradorligi uning vakolatlari va funksional qamroviga bog'liqligini ko'rsatuvchi empirik tadqiqotlar natijalari bilan hamohangdir (Mihret va Yismaw, 2007; Turetken va boshq., 2020).

Muhokama natijalari taklif etilayotgan ta'rif va evolyutsiya modelining nazariy ahamiyat bilan bir qatorda amaliy ahamiyatga ham ega ekanini ko'rsatadi. Ular Markaziy bank uchun normativ bazani takomillashtirishning konseptual asosi, tijorat banklari uchun ichki audit nizomlari va yillik audit rejalarini qayta ko'rib chiqish mezonini, ta'lim muassasalari uchun esa o'quv dasturlarini yangilash yo'nalishi sifatida xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, mazkur natijalar raqamli transformatsiya sharoitida ichki auditni rivojlantirish bo'yicha xalqaro ilmiy munozaralarni O'zbekiston bank sektori tajribasi bilan boyitadi (Betti va Sarens, 2021; Kotb va boshq., 2020).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Xalqaro standartlarning yangi avlodi ichki auditning iqtisodiy mohiyatiga oid yondashuvlarni sezilarli ravishda yangiladi: «nazorat va tekshirish» yondashuvi qiymat yaratish, himoya qilish va saqlashga yo'naltirilgan keng qamrovli yondashuv bilan boyitildi. Milliy normativ baza va ilmiy adabiyotda ushbu yangiliklarni bosqichma-bosqich yanada kengroq aks ettirish imkoniyati mavjud.

Ichki audit funksiyasining to'rt bosqichli konseptual evolyutsiya modeli (moliyaviy nazorat → operatsion audit → riskka yo'naltirilgan audit → maslahatchilik-kafolatli funksiya) asoslandi. Model har bir bosqichning ustuvor funksiyasi, obyekti, uslubiy asosi va tashkiliy rolini tizimlashtirib, bank ichki auditining hozirgi holatini tashxislash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Tijorat banklari uchun ichki auditning qiymat triadasi, istiqbol berish funksiyasi, uchinchi himoya chizig'i maqomi va kuzatuv kengashiga funksional bo'ysunishni uyg'unlashtiruvchi mualliflik ta'rif taklif etildi.

Markaziy bankka 3302-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Nizomni 2024-yilgi Global standartlar terminologiyasi asosida takomillashtirish, ichki audit ta'rifida qiymat yaratish, himoya qilish va saqlash maqsadlarini aniqroq ifodalash, riskka asoslangan rejalashtirish bo'yicha metodik talablarni batafsil belgilash hamda ichki auditning korporativ boshqaruv tizimidagi maqomini yanada mustahkamlash taklif etiladi.

Tijorat banklariga ichki audit nizomlari, audit qo'mitasi hujjatlari va yillik audit rejalarini yangi ta'rif elementlari kesimida qayta ko'rib chiqish, xodimlarni xalqaro sertifikatlash (CIA) dasturlariga jalb etish tavsiya qilinadi.

Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida ushbu ta'rif asosida ichki audit samaradorligini o'lchashning integral indeks modelini ishlab chiqish, riskka yo'naltirilgan audit algoritmini xalqaro standartlar bilan integratsiyalash hamda uzluksiz audit texnologiyalarini joriy etish masalalari belgilanadi.

5 Manba: muallif tomonidan [5; 6; 8; 12] asosida tuzilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi 3/2-son qarori bilan tasdiqlangan «Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablar to'g'risida»gi nizom : O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2021-yil 7-mayda 3302-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5431666> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2021-yil 16-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2020-yil 12-may, PF-5992-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4811025> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
4. O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-4581969> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
5. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2021-yil 25-fevral, O'RQ-677-son [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. — URL: <https://lex.uz/docs/-5307886> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
6. Anderson U. L., Head M. J., Ramamoorti S., Riddle C., Salamasick M., Sobel P. J. *Internal Auditing: Assurance & Advisory Services*. — 4th ed. — Lake Mary, FL : Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2017. — ISBN 978-0-89413-987-1.
7. Arena M., Azzone G. Identifying organizational drivers of internal audit effectiveness // *International Journal of Auditing*. — 2009. — Vol. 13, no. 1. — P. 43–60. — DOI: 10.1111/j.1099-1123.2008.00392.x.
8. Basel Committee on Banking Supervision. *The Internal Audit Function in Banks* [Elektron resurs]. — Basel : Bank for International Settlements, 2012. — 19 p. — URL: <https://www.bis.org/publ/bcbs223.pdf> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
9. Betti N., Sarens G. Understanding the internal audit function in a digitalised business environment // *Journal of Accounting & Organizational Change*. — 2021. — Vol. 17, no. 2. — P. 197–216. — DOI: 10.1108/JAOC-11-2019-0114.
10. Chambers R. F. *Agents of Change: Internal Auditors in an Era of Disruption* / with R. Pérez. — Lake Mary, FL : Internal Audit Foundation, 2021. — 154 p. — ISBN 978-1-63454-119-0.
11. Cohen A., Sayag G. The effectiveness of internal auditing: An empirical examination of its determinants in Israeli organisations // *Australian Accounting Review*. — 2010. — Vol. 20, no. 3. — P. 296–307. — DOI: 10.1111/j.1835-2561.2010.00092.x.
12. The Institute of Internal Auditors. *Global Internal Audit Standards* [Elektron resurs]. — Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2024. — URL: <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/global-internal-audit-standards/> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
13. The Institute of Internal Auditors. *Cybersecurity Topical Requirement* [Elektron resurs]. — Lake Mary, FL : The Institute of Internal Auditors, 2025. — URL: <https://www.theiia.org/en/standards/2024-standards/topical-requirements/cybersecurity/> (murojaat sanasi: 21.07.2026).
14. Kotb A., Elbardan H., Halabi H. Mapping of internal audit research: A post-Enron structured literature review // *Accounting, Auditing & Accountability Journal*. — 2020. — Vol. 33, no. 8. — P. 1969–1996. — DOI: 10.1108/AAAJ-07-2018-3581.
15. Lenz R., Jeppesen K. K. The future of internal auditing: Gardener of governance // *EDPACS*. — 2022. — Vol. 66, no. 5. — P. 1–21. — DOI: 10.1080/07366981.2022.2036314.
16. Mihret D. G., Yismaw A. W. Internal audit effectiveness: An Ethiopian public sector case study // *Managerial Auditing Journal*. — 2007. — Vol. 22, no. 5. — P. 470–484. — DOI: 10.1108/02686900710750757.
17. Sarens G., De Beelde I., Everaert P. Internal audit: A comfort provider to the audit committee // *The British Accounting Review*. — 2009. — Vol. 41, no. 2. — P. 90–106. — DOI: 10.1016/j.bar.2009.02.002.
18. Turetken O., Jethfer S., Ozkan B. Internal audit effectiveness: Operationalization and influencing factors // *Managerial Auditing Journal*. — 2020. — Vol. 35, no. 2. — P. 238–271. — DOI: 10.1108/MAJ-08-2018-1980.
19. Do'smurotov R. D. *Audit asoslari : darslik*. — Toshkent : O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. — 612 b.
20. Ahmadjonov K., Yakubov I. *Audit asoslari : darslik* / B. Yu. Xodiyevning umumiy tahriri ostida. — Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2010. — 288 b. — ISBN 978-9943-13-137-8.
21. Подольский В. И., Савин А. А., Сотникова Л. В. *Аудит : учебник для студентов образовательных учреждений среднего профессионального образования* / под ред. В. И. Подольского. — 8-е изд., стер. — Москва : Академия, 2012. — 350, [1] с. — ISBN 978-5-7695-8939-3.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100